

**Surxondaryo viloyati
statistika boshqarmasi**



**2019 yilning yanvar-fevral oylarida
QURILISH ISHLARI**

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi-

266,1 mlrd.so'm

Yirik qurilish tashkilotlari ulushi -

17,3 %

Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi -

53,1 %

Norasmiy sektor ulushi- **29,6 %**

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Surxondaryo viloyatida jami 266,1 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,0 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 46,1 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 17,3 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 marta ko'p bajarildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,1 %i yoki 141,3 mlrd.so'm to`g`ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,0 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 29,6 % yoki 78,7 mlrd.so'm to`g`ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,7 %ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi - **46,1 mlrd.so'm**

o'sish sur'ati - **221,1 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar

hajmi - **141,3 mlrd.so'm**


o'sish sur'ati - **104,0 %**

Norasmiy sektor

hajmi - **78,7 mlrd.so'm**

o'sish sur'ati - **93,7 %**

Yanvar-fevral oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 66,7 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 11,2 % punktga kamaydi.


Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 24,7 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 10,1 % punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 8,6 % to`g`ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,1 % punktga ko'paydi.

Yanvar-fevral oylarida qurilish ishlaringin faoliyat turlari bo`yicha tarkibi



- ▣ Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- ▣ Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- ▣ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 0,1 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi. Bunda kichik korxona va mikrofirmalar ulushi 55,6 % (1,4 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 44,3 %ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 54,3 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,8 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi 45,7 % (9,8 % punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 15,2 % punktga ko'paydi va 45,1 %ni tashkil etdi. Qolgan 54,9 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 15,2 % punktga kamaydi.

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo`yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan %da)



■ Yirik qurilish tashkilotlari ■ Kichik korxona va mikrofirmalar ■ Norasmiy sektor


Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 141,3 mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 53,1 %) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,0 %ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 46,1 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 17,3 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 marta ko'p bajarildi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 29,6 % yoki 78,7 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,7 %ni tashkil etdi.



2019 yil yanvar-fevralda qurilish ishlarining mulkchilik shakllari bo`yicha tarkibi (jamiga nisbatan %da)




Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 4,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 1,6 %ni tashkil qildi yaʼni 2018 yil yanvar-fevraliga nisbatan 1,0 % punktga kamaydi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 261,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 98,4 %ni (2018 yil yanvar-fevraliga nisbatan 1,0 % punktga koʼpayish) tashkil qildi.




Hududlarda qurilish ishlaringin o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlaringin hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati Sariosiyo tumanida kuzatilgan bo`lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur`ati 151,3 %ni tashkil etdi. Bu tumandagi qurilish ishlaringin asosiy qismi yirik qurilish tashkilotlari hissasiga to`g`ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlaringin 58,2 %ini tashkil qiladi.




Yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Termiz shahriga 24,4 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sariosiyo tumaniga 18,8 %, Denov tumaniga 7,1 % va Qumqurg'on tumaniga 6,8 % ga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari (mln.so`m)



**Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni:

**(76) 223-07-15
(71)230-85-81**